



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI




No9
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 258 sahifa,
2-sentyabr, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktabgacha ta'lim tashkiloti innovatsion faoliyatini rivojlantirish jarayoni.....	14
Ibragimova Gulsanam Nematovna	
Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim metodikasida qo'llanilishi va o'qituvchi kompetentligiga ta'siri	22
Abduyev Sheroz	
Boshlang'ich ta'limda "tabiatshunoslik" fanini raqamli platformalar orqali o'qitish metodikasini takomillashtirish: 5e modeli asosida dizayn, baholash va joriy etish.....	25
Ahmadaliyev Shohruh Bahromjon o'g'li	
Ingliz va rus leksikografiyasida o'zbek milliy taom nomlarining lingvistik tahlili	30
Bobojonova Zarina Rashidovna	
Rahbarlarda til bilish darajasi va hissiy intellekt (eq): o'zaro bog'liqlikni o'rganish	34
Isaqlulova Baxtigul Xo'jamovna	
Frazeologizmlarni o'rgatishda matn asosida integratsiyalashgan dars modeli: xorijiy til o'rganuvchilar tajribasi	38
Jumayeva Sadbarg Mirolimovna	
O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari: rivojlangan davlatlar tajribasi tahlili	42
Karimova Moxichehra Rixsibayevna	
Rus va ingliz tillarida sharqona realiyalarning leksik-semantik tasnifi	46
Kulmamatova Aziza Do'stmamat qizi	
TRIZ metodikasi asosida texnokratik bolalar bilan ishlash tizimini takomillashtirish	50
Orifjonova Mavludaxon Abduqaxxor qizi	
Raqamli ta'lim muhitida pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish.....	53
Raximberganova Munajat Muzaffar qizi	
Structure of Social Conflict and Stages of its Development	57
Zaynutdinova Shahnoza Yuldashevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini baholash va rag'batlantirish tizimini takomillashtirish.....	60
Abduraxmonova Nigoraxon Akramali qizi	
Expression of National Mental Characteristics in the Uzbek Lullaby.....	64
Alimbayeva Shaxlo Tursunovna	
Bo'lajak "texnologiya" fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetentlikni rivojlantirish tizimining pedagogik zarurati	69
Avazov G'oyibnazar Berdiyevich	
Bo'lajak tarbiyachilarda integratsiyalashgan ta'lim faoliyatini rivojlantirish orqali kommunikativ salohiyatini shakllantirish	72
Baratova Yulduz Asadullayevna	
Umumta'lim maktablarida molekulyar fizikani o'qitishning hozirgi holati	76
Boymirov Sherzod Tuxtayevich, Xudoynazarova Visola Musurmonqul qizi	
Ingliz tilini o'qitishda talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini akt vositasida rivojlantirish	80
Ergasheva Sevaraxon Ravshanjon qizi	
Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish istiqbollari.....	84
O'rinova Feruzaxon O'ljayevna, Karimova Gulzodaxon Marufjon qizi	
IIV litsey o'quvchilarining liderlik kompetensiyasini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari.....	90
Gadoyeva Dildora Baxtiyorovna	
Improving the System of Human Resource Capacity Management in Higher Education Institutions: Evidence from Uzbekistan	98
Imomov I., Umirova D.	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni mantiqiy va tanqidiy fikrlashga o'rgatishning zamonaviy usullari.....	104
Iskandarova Munisa Bahodir qizi	
Tarbiyachi-pedagoglarning emotsional kompetensiyasini rivojlantirish	107
Jovmirzayeva Nargiza Quvondiqovna	



Maktabgacha ta'lim yoshdagi giperaktiv bolalarga ta'lim berishning pedagogik-psixologik usullari	110
Jo'rayeva Nargiza Toirovna, Kamalova Sarvinov	
Blum taksonomiyasi asosida ilmiy kompetentlikni takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari	113
Mustafayeva Nilufar Ulashovna	
Maktabgacha yoshdagi ovoz buzulishiga ega bolalar bilan guruhli mashg'ulotlarni tashkil qilish	117
Umida O'tbasarova Mexmanovna, Maksudbekova Xovvajan Xamidbek qizi	
Bolalar jamoasida do'stona munosabatlarni shakllantirishda rivojlanish markazlarida loyiha asosida o'qitish texnologiyasidan foydalanish usullari	121
Quronova Ismigul Xolmurod qizi	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda innovatsion metodlar orqali o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi	126
Rustamova Davlatxon Toyirjon qizi	
Oliy ta'limda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning innovatsion modellari	131
Sanayeva Surayyo Bobonazarovna	
"Tibbiy radiologiya" fanini o'qitishda pedagogik muloqot orqali tanqidiy operativ muloqotni o'stirishning o'ziga xos xususiyatlari	139
Shukurova Sevara Ilhomovna	
Improving High Jump Techniques	143
Tajimbetov Anvar Tengeldayevich	
Filologik va ijtimoiy-siyosiy fanlarda ta'lim jarayonining innovatsion metodlari	146
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna	
Понятие логического мышления и его особенности у младших школьников	149
Ахмаджонова Нозима Нодиржон кизи	
Интеграция психологии, обучения английскому языку, дошкольного образования и туризма: междисциплинарная модель формирующего опыта	152
Омонуллаева Дилофуза Асадулла кизи	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'yin faoliyatida ijtimoiy motivlarni shakllantirish usullari	157
Abduvaxobova Nodira	
Boshlang'ich ta'limda kognitiv faollikni rivojlantirishning afzalliklari	160
Ismailova Nozima Umaraliyevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini matnni tahlil qilishga o'rgatishda zamonaviy yondashuvlarning ahamiyati	164
Utanbayeva Dildora Abdixadirovna	
Dorivor o'simliklar kursini o'qitish metodikasini takomillashtirishda keys texnologiyalaridan foydalanish	168
Mirzaboyev Timur Bisenbay o'g'li	
Oliy ta'lim talabalarida ijtimoiy-axloqiy kompetensiyani rivojlantirish: empirik tadqiqot natijalari	171
To'raqulov Akbar Rustam o'g'li	
Gerontotexnologiya ijtimoiy-pedagogik innovatsiya sifatida	175
Temirova Muyassar Abdulkarim qizi	
O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda Sharq mutafakkirlarining qarashlaridan foydalanish	180
Raximova Surayyo Otabek qizi	
Yoshlarni kasb tanlashda ruhiy tayyorgarlik va shaxsiy qobiliyatlarni baholash	183
Biysenov Temirbek Taumuratovich	
Talabalarni ta'limiy qadriyatlar asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirishning ahamiyati	188
Choriyeva Surayyo Choriyevna	
Differences Between Computer-Based and Paper-Based Assessment in Inclusive Education	192
Davidova Sayyora Sirojiddin kizi	
Raqamli muhit sharoitida ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonining pedagogik modeli va tajriba-sinov natijalari	196
Donayeva Nozimaxon Norbo'tayevna	
Intellekt xarita yordamida o'quvchilarda "emotsional intellekt"ni rivojlantirish	201
G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich	
Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda o'yin faoliyatining psixologik-pedagogik ahamiyati	206
Isayeva Mushtariy Alisher qizi	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarini innovatsion yondashuv asosida boshqarishning nazariy asoslari	210
Mannanova Nargiza Xaydarovna	

Ingliz tilini o'rgatishda ona tilidan keng foydalanishning salbiy va ijobiy jihatlari	215
Masharipova Kumushoy Amin qizi	
The Relationship Between Critical Thinking and Reading Comprehension in Primary School Students	218
Mavlonova Dildora Shukhrat kizi	
Tasviriy san'at mashg'ulotlarida zamonaviy metodlardan foydalanish	222
N. K. Musayeva, U. O. Ziyatova	
Singapurning ta'lim falsafasi: korporativ madaniyatni ma'naviy-ma'rifiy rivojlanish bilan integratsiyalash ...	226
Nishonov Xayrulla Xolmirzaevich	
The Anthropocentric Paradigm in Modern Linguistics: Cognitive Linguistics and Linguacultural Studies in The Study of Language, Consciousness, and Culture	230
Rajabova Shaxlo Shodmonovna	
Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimini rivojlantirish va uning sifatini oshirishda nostandart yondashuvning ahamiyati	234
Ramazonova Salomat Saidovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kreativ sinflar ishini tashkil etishga tayyorlash	238
Saidova Gulruh Halim qizi	
O'zbek oilalarida ota-ona va farzand munosabatlarini tashxis qilishning psixologik xususiyatlari (Farg'ona vodiysi misolida)	242
Turg'unboeva Azizaxon G'ulomovna	
Сущность и специфика развития билингвизма у детей дошкольников	246
Истамова Нигора Азимжановна	
Zamonaviy rahbarning innovatsion boshqarish texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari	249
Xakimova Dildora Mashrabjonovna	
Креативный подход к развитию лингвометодического мышления студентов-филологов	253
Ходжаниязова Айгуль Айтмуратовна	



BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QITUVCHILARINI KREATIV SINFLAR ISHINI TASHKIL ETISHGA TAYYORLASH

Saidova Gulruh Halim qizi

Qori Niyoziy nomidagi

Tarbiya pedagogikasi milliy instituti doktoranti

ORCID: 0009-0005-2976-4674

Annotatsiya: Boshlang'ich sinf o'qituvchilari ta'lim jarayonida eng muhim rolni bajaradi. Ayniqsa, bugungi zamonaviy ta'lim muhitida kreativ va interfaol sinflar ishini tashkil etish qobiliyati o'qituvchining kasbiy muvaffaqiyati uchun zarurdir. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kreativ sinflar ishini tashkil etishga tayyorlash ta'lim sifatini oshirish va o'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Ushbu jarayon nafaqat o'qituvchining bilim darajasini, balki uning pedagogik mahoratini ham takomillashtiradi. Maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kreativ sinflar ishini tashkil etishga tayyorlash masalalari ilmiy asosda yoritilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, mustaqil fikrlash, pedagogik mahorat, metodlar, interfaol dasturlar, seminarlar, metodik mashg'ulotlar, o'quv mashg'ulotlari.

Abstract: Primary school teachers play a crucial role in the educational process. In today's modern educational environment, the ability to organize creative and interactive classroom activities is considered a vital factor for teachers' professional success. Preparing future primary school teachers for organizing creative classroom work significantly contributes to improving the quality of education and enhancing students' creative potential. This process not only develops teachers' knowledge levels but also refines their pedagogical skills. The article highlights scientific perspectives on preparing future primary school teachers to effectively manage creative classroom activities.

Key words: primary education, independent thinking, pedagogical skills, methods, interactive programs, seminars, methodological exercises, training sessions.

Аннотация: Учителя начальных классов играют ключевую роль в образовательном процессе. В условиях современной образовательной среды умение организовывать творческую и интерактивную деятельность в классе является важнейшим фактором профессионального успеха педагога. Подготовка будущих учителей начальной школы к организации творческой работы способствует повышению качества образования и развитию творческого потенциала учащихся. Этот процесс обеспечивает не только рост уровня знаний педагога, но и совершенствование его педагогического мастерства. В статье рассматриваются научные подходы к подготовке будущих учителей начальной школы к организации творческой работы в классе.

Ключевые слова: начальное образование, самостоятельное мышление, педагогическое мастерство, методы, интерактивные программы, семинары, методические занятия, тренинги.

KIRISH

Boshlang'ich ta'lim – har bir insonning hayotidagi eng muhim va asosiy bosqichlardan biridir. Bu bosqichda bolalar nafaqat asosiy bilimlarni egallashadi, balki o'zlarining ijtimoiy, emosional va aqliy rivojlani-shining poydevorini qo'yadilar. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'limi sifatli va samarali bo'lishi juda muhimdir. Bugungi kunda ta'lim jarayonida yangicha yondashuvlar, kreativ va interfaol metodlar keng qo'llanilmoqda. Bu esa o'quvchilarning o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy salohiyatini rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Shunday ekan, boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'limini tashkil etishda o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi, ayniqsa kreativ sinf muhitini yaratish bo'yicha ko'nikmalari dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Kreativ sinflar ishini tashkil etish deganda o'quvchilarning mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish, yangi g'oyalar yaratish va ijodiy yondashuvlarni qo'llash qobiliyatlarini rivojlantirish nazarda tutiladi. Bunday sinflarda o'qituvchi faqat ma'lumot beruvchi emas, balki o'quv jarayonining fasilitatori, yo'naltiruvchisi sifatida faol ishtirok etadi. Bo'lajak o'qituvchilarni mana shunday kreativ muhit yaratishga tayyorlash uchun dastlab nazariy bilimlarni



chuqur o'zlashtirish zarur. Pedagogika, metodika, psixologiya, shuningdek, kreativ ta'lim texnologiyalari haqida keng qamrovli bilimlar berish muhim ahamiyatga ega. Kreativ sinflar ishini tashkil etishda o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish katta o'rin tutadi. Har bir bola o'ziga xos qobiliyat va qiziqishlarga ega bo'lib, o'qituvchi ularni aniqlab, o'quv jarayonida mavjud salohiyatni maksimal darajada ochib berishga harakat qilishi kerak. Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik psixologiya asoslarida tayyorlash, ularni yosh bolalarning rivojlanish xususiyatlari va psixologik holatlarini chuqur tushunishga o'rgatish kreativ sinf muhitini yaratishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, o'quvchilarning ijtimoiy va hissiy rivojlanishiga e'tibor qaratish ham samarali ta'lim uchun zarur.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

XXI asrga kelib O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasida ham ushbu termin ishlatila boshlandi. Ayniqsa, pedagogika fanining alohida va yosh tarmog'i sifatida shakllanib boshlagan "Innovatsion pedagogika"da ushbu terminga bot-bot duch kelmoqdamiz. R.A. Mavlonova o'zining "Boshlang'ich ta'limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya" nomli o'quv qo'llanmasida kreativlikning o'zi nima, uning shakllanishi masalalariga alohida to'xtalib o'tgan. Qo'llanmada kreativlik tushunchasining mazmuni va mohiyati chuqur tahlil etilgan. Ammo kreativlik masalasining ilmiy-nazariy, ilmiy-pedagogik jihatlarini hamda kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarni o'zlashtirish jarayonida maxsus ilmiy tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan. Bugungi kundagi zamonaviy uzluksiz ta'lim tizimi kreativ yondashuvni talab etadi. Kreativ yondashuv bevosita innovatsiyalar bilan bog'liq jarayondir. Negaki, o'qituvchining ijodiy faoliyat yuritishi uchun u albatta o'zining sohasidagi eng so'nggi yangiliklardan, shu bilan bir qatorda butun jamiyatdagi voqea va hodisalardan xabardor bo'lishi, innovatsion yangiliklarni o'z faoliyatida o'rinni foydalana olishi lozim. Demak, o'qituvchi har qanday vaziyat, har qanday jarayon va har qanday paytda eng samarali yo'lni izlab topishi va uni amaliyotga joriy qilish orqali mashg'ulot jarayonini samarali tashkil etishi, o'quvchilar ongiga tez, tushunarli, qulay, oson va samarali tarzda yetkazib berishi ham kreativlikning bir ko'rinishi deyish mumkin ^[1].

Yuqoridagi pedagog olimlar, ayniqsa olim R.A. Mavlonova tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bilan tanishar ekanmiz, ularning barchasini umumlashtirgan holda quyidagi fikrlarni e'tirof etish mumkin:

1. Kreativlik shaxsni innovatorlikka – yangilik yaratishga undovchi pedagogik kategoriya hisoblanadi.
2. Kreativ salohiyat o'qituvchining kasbiy va shaxsiy sifatlarining integratsiyasidir. Chunki, o'qituvchi tabiatan qiziquvchan, intiluvchan bo'lmas ekan, u hech qachon ijodkorlikni namoyon eta olmaydi.
3. Kreativlik o'qituvchilarda o'z-o'zidan paydo bo'ladigan sifat emas. U o'qituvchining yangiliklarga intilishi, yangiliklarni o'zlashtirish va o'zining pedagogik faoliyatida qo'llay olish jarayonlarida duch keladigan qiyinchiliklarni yenga olishi, innovatsion yangiliklarni o'z faoliyatida faol, ijodkorona foydalana olishi, o'z mualliflik g'oyalariga egaligi va optimal yechimlarni topa olishi bilan bog'liqdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativlikni rivojlantirish omillarining ta'sirini baholash, kreativlikka asoslangan ta'limiy faoliyatni tashkil etishning metodik tizimini takomillashtirish, kreativlikka asoslangan pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish zarurati tug'ilmoqda. Mamlakatimizda umumta'lim sifatini oshirish, o'quv jarayoniga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etishdagi keng qamrovli islohotlar natijasida boshlang'ich ta'limda sifatli ta'lim xizmatlari samaradorligini oshirish, shiddat bilan o'zgarib borayotgan globallashtirish sharoitida o'quvchilarda ijtimoiy intellektni rivojlantirishni ta'minlovchi imkoniyatlar salmog'i kengaydi ^[2].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ta'lim jarayonida kreativlikni qo'llab-quvvatlash uchun o'qituvchilarga turli interfaol metod va texnologiyalarni o'zlashtirish tavsiya etiladi. Masalan, loyihalar asosida ta'lim, muammoga yo'naltirilgan o'qitish, guruhlarda ishlash, o'yin texnologiyalari va boshqa innovatsion usullar bolalarning faolligini oshiradi va ularni doimiy ravishda ijodiy fikrlashga undaydi. Bo'lajak o'qituvchilarga bu metodlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish uchun ko'plab treninglar, seminarlar va metodik mashg'ulotlar tashkil etilishi lozim. Shu bilan birga, o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatish va ularni rag'batlantirish usullarini o'rgatish ham ajralmas qism sanaladi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ sinflar ishini tashkil etishga tayyorlashda o'quv-tarbiya jarayonini loyihalash va boshqarish qobiliyatlari muhim o'rin tutadi. O'qituvchi dars rejalarini tuzishda ijodiy yondashuvni qo'llashi, dars jarayonida o'quvchilarning faolligini oshirishga qaratilgan topshiriqlar berishi, yangi o'quv materiallarini yaratishga harakat qilishi lozim. Shu bilan birga, o'quv jarayonini doimiy tahlil qilish va takomillashtirish, o'quvchilarning qiziqishlari hamda ehtiyojlarini hisobga olish asosida ish olib borish zarur. Bu esa o'qituvchining kasbiy o'sishida muhim omil hisoblanadi. Texnologiyalarni qo'llash kreativ ta'lim jarayonini boyitadi va samaradorligini oshiradi. Zamonaviy axborot texnologiyalari, interaktiv doskalar, multi-

mediya vositalari va elektron o'quv resurslari o'quvchilarning diqqatini jalb qilishda va ularning fikrlash doirasini kengaytirishda samarali vositalar hisoblanadi. Bo'lajak o'qituvchilarni ushbu texnologiyalarni o'zlashtirishga, ularni dars jarayonida to'g'ri va samarali qo'llashga o'rgatish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, raqamli savodxonlikni rivojlantirish ham o'qituvchilarning kreativ ishida katta ahamiyatga ega ^[3].

TAHLIL VA NATIJALAR

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida ularning shaxsiy kreativligini rag'batlantirish muhimdir. O'qituvchi o'zining ijodiy salohiyatini oshirish uchun muntazam o'qish, ilmiy izlanishlar olib borish, professional hamjamiyatlarda faol ishtirok etishi zarur. Bu esa nafaqat ularning pedagogik mahoratini, balki o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish qobiliyatini ham kuchaytiradi. Shuningdek, o'qituvchi o'zining hissiy-intellektual holatini boshqarishni o'rganishi, stressga chidamliligini oshirishi va samarali muloqot madaniyatini rivojlantirishi lozim. Psixologik qulay muhit yaratish ham kreativ sinflar ishining ajralmas qismi hisoblanadi. O'quvchilar o'zlarini erkin, qulay va ishonchli his qiladigan sinf muhitida faollik ko'rsatishlari osonlashadi. Bo'lajak o'qituvchilarni shunday muhit yaratishga o'rgatish, ularni har bir o'quvchining individual xususiyatlarini inobatga olishga tayyorlash samarali ta'lim jarayonining asosi bo'lib xizmat qiladi. Bu jarayonda ota-onalar bilan hamkorlik qilish va ularning ta'lim jarayonidagi roli haqida tushunchalar berish muhimdir. Ta'lim jarayonida kreativ sinflar ishini tashkil etishda o'quvchi faoliyatiga yo'naltirilgan nazorat va baholash tizimini joriy etish zarur. Baholash o'quvchilarning faolligini oshirish, ularning ijodiy yondashuvlarini rag'batlantirish vositasi bo'lib xizmat qilishi kerak. Bo'lajak o'qituvchilarni shu kabi baholash usullarini ishlab chiqishga va amaliyotga joriy etishga tayyorlash ular uchun katta imkoniyat yaratadi. Shu bilan birga, baholash natijalari asosida o'quv jarayonini takomillashtirishga yo'naltirilgan ishlarni amalga oshirish muhimdir ^[4].

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kreativ sinflar ishini tashkil etishga tayyorlashda nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish alohida e'tibor talab qiladi. O'quv jarayonida stajirovkalar, amaliy mashg'ulotlar, mentorlik tizimi va pedagogik praktikalar tashkil etish orqali o'qituvchilar o'z bilimlarini real sharoitda qo'llash imkoniga ega bo'ladilar. Bu esa ta'lim sifatini oshirishga va yangi pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, badiiy va madaniy faoliyat elementlarini ta'lim jarayoniga kiritish kreativ sinflar ishini yanada jonlantiradi. Musiqa, rasm, drama kabi san'at turlari o'quvchilarning hissiy-intellektual rivojlani-shiga yordam beradi, ularning ijodiy fikrlash doirasini kengaytiradi. Bo'lajak o'qituvchilarni ushbu elementlardan samarali foydalanishga tayyorlashda maxsus kurslar va treninglar o'tkazilishi ta'lim jarayonining muhim qismidir. Kasbiy rivojlanish uchun doimiy o'zini takomillashtirish zarur. Bo'lajak o'qituvchilarni kreativ sinflar ishini tashkil etishga tayyorlashda ularning kasbiy maqsadlarini aniqlash, rejalashtirish va amalga oshirish ko'nikmalarini rivojlantirish kerak. Bu jarayonda mentorlik, o'zaro tajriba almashish va professional hamjamiyatlarda ishtirok etish katta yordam beradi. Shuningdek, o'qituvchilarning pedagogik innovatsiyalarni qabul qilish va qo'llashga tayyorligini shakllantirish muhimdir ^[5].

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kreativ sinflar ishini tashkil etishga tayyorlash borasida statistik tahlil quyidagi asosiy jihatlarni o'z ichiga oladi. Tadqiqotlarda ishtirok etgan o'qituvchilarning katta qismi (taxminan 70–80%) kreativ ta'lim texnologiyalari va interfaol metodlarni o'rganishga qiziqish bildirgan. Shu bilan birga, malaka oshirish kurslari va seminarlar orqali zamonaviy pedagogik usullarni o'zlashtirishda o'rtacha ishtirok darajasi 60–75%ni tashkil qiladi. Bu esa doimiy va tizimli tayyorgarlik zarurligini ko'rsatadi. Mentorlik tizimi mavjud bo'lgan maktablarda yosh o'qituvchilarning o'z-o'zini baholash ko'nikmalari va darslarda kreativ yondashuvlarni qo'llash darajasi 30–40% ga yuqori bo'lib, bu tizimning samaradorligini tasdiqlaydi. Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish darajasi o'quvchilarning katta qismida (75% dan ortiq) o'quv faoliyatiga qiziqishni oshirganligi kuzatilgan. Ushbu statistik ko'rsatkichlar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kreativ sinflar ishini tashkil etishga tayyorlash jarayonida pedagogik dasturlarni takomillashtirish va qo'llab-quvvatlashning muhimligini ta'kidlaydi ^[6].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kreativ sinflar ishini tashkil etishga tayyor-lash zamonaviy ta'limning ajralmas qismi hisoblanadi. Bu jarayon o'qituvchilarning nazariy bilimlari, amaliy ko'nikmalari, shaxsiy kreativligi va pedagogik mahoratini uyg'unlashtirish orqali amalga oshiriladi. Kreativ sinf muhitini yaratish o'quvchilarning faolligini oshiradi, ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi hamda ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Shu bois, pedagogik ta'lim muassasalari va ta'lim tizimi mutasaddilari bunday tayyorgarlik jarayonlariga alohida e'tibor qaratishlari zarur. Ta'limda kreativ yondashuv-larni joriy etish istiqbolli va samarali ta'lim tizimini shakllantirishda asosiy omil bo'lib qoladi. Bo'lajak bosh-lang'ich sinf o'qituvchilarini kreativ sinflar ishini tashkil etishga tayyorlash uchun pedagogik ta'lim dasturlarini kreativ ta'lim metodlari va interfaol usullar bilan boyitish zarur. Shuningdek, o'qituvchilarni zamonaviy pedagogik



texnologiyalar bo'yicha doimiy malaka oshirish kurslari va amaliy seminarlar orqali tayyorlash muhimdir. Ta'lim jarayonida yosh o'qituvchilar uchun tajribali mutaxassislar tomonidan mentorlik tizimini yo'lga qo'yish va ularni amaliyotda qo'llab-quvvatlash orqali kreativ sinflar tashkil etish ko'nikmalarini shakllantirish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Berdikulova, N. (2023). Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kreativ pedagogik yondashuvlarga tayyorlash. Samarqand davlat universiteti ilmiy ishlari, 12(3), 45–52.
2. Umarov, H. (2024). Innovatsion texnologiyalar asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash metodikasi. Ta'lim, fan va innovatsiya, 1-son, 23–30.
3. Turanova, I. (2024). Boshlang'ich ta'limda interfaol va ijodiy yondashuvlar. Ta'lim, fan va innovatsiya, 2-son, 15–22.
4. Sobirov, M. (2022). Kreativ sinflar ishini tashkil etishda pedagoglarning malakasini oshirish yo'llari. Zamonaviy maktab, 5(1), 60–68.
5. Islomova, D. (2023). Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun innovatsion metodlar qo'llanilishi. Pedagogika va psixologiya, 8(4), 35–41.
6. Xolmurodova, S. (2022). Kreativ pedagogika va uning boshlang'ich ta'limda qo'llanilishi. O'zbekiston ta'limi va fan, 6(2), 78–85.
7. Qodirov, R. (2024). Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini interaktiv o'quv mashg'ulotlariga tayyorlash. Ilmiy izlanishlar, 10(3), 50–57.
8. Mamatqulova, G. (2023). Pedagogik innovatsiyalar va kreativlikni rivojlantirish. Ta'lim va zamonaviy texnologiyalar, 4(2), 41–48.
9. Nurmatov, A. (2022). Kreativ sinflar faoliyatini tashkil etishda o'qituvchilarning malakasini oshirish. Pedagogik tadqiqotlar, 7(1), 29–36.
10. Saidova, G.H. (2024). 4K ta'limini joriy etish sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ salohiyatini rivojlantirish. Qoraqalpoq davlat universiteti axborotnomasi, 4(67), 35–39.
11. Saidova, G.H. (2024). Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ salohiyatni takomillashtirishning akme texnologiyalari. European Science International Conference (Italy), 22-dekabr, 58–63.
12. Saidova, G.H. (2024). Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ salohiyatni rivojlantirishning shart-sharoitlari. Tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g'oyalar, 1(2), 118–122.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.